

**GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'LKASHUNOSLIK
MATERIALLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA
NAZARIY ASOSLARI**

Qudratova Shahrizoda Oybek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti geografiya kafedrası magistranti,

Buxoro, O'zbekiston, e-mail: shahiqudratova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya darslarida o'lkashunoslik (regional) materiallardan foydalanishning pedagogik va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Maqolada: o'lkashunoslik materiallarining turlari, dars jarayoniga integratsiyalash usullari, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'lkashunoslik, o'lka, geografiya, o'quvchi, ta'lim-tarbiya, sayohat, o'quv dasturi.

**THE IMPORTANCE AND THEORETICAL BASIS OF USING LOCAL
STUDIES MATERIALS IN GEOGRAPHY LESSONS**

Qudratova Shahrizoda Oybek qizi

Master's student at the Department of Geography,

Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan,

e-mail: shahiqudratova@gmail.com

Abstract: This article analyzes the pedagogical and practical aspects of using local history (regional) materials in geography lessons. The article presents: types of local history materials, methods of integration into the lesson process, existing problems and proposals for their solution.

Keywords: Local history, country, geography, student, education, travel, curriculum.

Ta'lim-tarbiya jarayonida geografiyani o'qitishning asosiy maqsadi-o'quvchida hududiy (regional) xususiyatlarni anglash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy

jarayonlarni hudud darajasida tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. O'lkashunoslik materiallari (mahalliy xaritalar, statistik ma'lumotlar, fotosuratlar, arxiv hujjatlari, mahalliy atlalar va boshq.) o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi, bilimlarni real muhitga bog'laydi va amaliy faoliyatga undaydi. Har bir hududning o'lkashunoslik jihatdan o'rganishning to'liqligi, o'lka tushunchasini chegarasini aniqlashga bog'liq. K.F.Stroyevni fikriga ko'ra bir holatda o'lka deganda doimo bevosita kuzatilishi mumkin bo'lgan, maktabni yaqin atrofi tushuniladi. Ikkinchi holatda esa tuman yoki viloyatni chegarasi bilan chegaralangan hudud tushuniladi.

Geografiyadan o'rta maktabda o'lkashunoslik jihatdan tahlil qilsak, unda ta'limni bu sohasiga alohida e'tibor berilganligi aniq ko'rinadi. Geografiya fani o'qitiladigan sinflarda, geografik o'lkashunoslik, ham bir mavzuni amaliy ishlarida va ekskursiyalarini mazmunida aks ettirilgan.

Bizga o'z o'lkamizni (joyimizni) tabiiy geografiyasini o'rganish, birinchidan, tevarak atrofni bilish va tushunish uchun kerak. Ikkinchidan esa, o'z o'lkamizni geografiyasini o'rganish orqali, boshqa mamlakatlarni va butun yer sharining tabiiy geografiyasini yaxshi o'rganish uchun zarur, deb yozilgan A.A.Polovinkin (1963). Shuning uchun geografiyani dasturida geografik o'lkashunoslikga katta e'tibor berilgan.

Maktab geografiyasi o'quvchilarni g'oyaviy ruhda tarbiyalashda ham muhim rol o'ynaydi. (A.A. Половинкин. География и родная природа. Москва. Изд. АН РСФСР. 1963)

Maktab geografiyasi o'quvchilarni milliy istiqlool ruhida tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega. Chunonchi, o'quvchilar geografik muhitni o'rganish orqali tabiatdagi geografik jarayonlar va tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar mohiyatini tushunib yetadilar. O'quvchi amaliy va mustaqil ishlarni bajarish jarayonida tabiatdagi hodisa va jarayonlarni kuzatish, geografik ob'ektlarni xaritada tasvirlash orqali o'z o'lkasi haqida chuqur bilimlarga ega bo'lish bilan birga, ularda o'lka tabiati haqida tegishli amaliy ko'nikma va malakalar ham shakllanadi.

Geografiya o'quv dasturida sayr va sayohatlar uchun alohida soatlarning ajratilishi o'quvchilarda o'lka haqidagi bilimlarni yanada boyitishga asos bo'ladi.

Masalan o'quvchilar geografik muhitni o'rganish asosida, tabiatdagi geografik hodisalarni sabablarini va tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, haqiqiy borliq asosida tushunib oladilar. Amaliy ishlar natijasida esa, kartadan foydalanib, joyni tabiiy geografik xususiyatlarini yozish, tabiiy hodisalarni kuzatish va tasvirlash kabi geografik tadqiqotlar uslubini o'zlashtirib oladilar.

Reja asosida o'tkaziladigan ekskursiyalar, o'quvchilarga o'z o'lkasini o'rganishni va o'lkashunoslik materiallardan darsga keng foydalanishni ko'zda tutadi. Bir qator amaliy ishlar darsdan tashqarigi vaqtlarda kuzatish olib borish va ekskursiyalar davomida bajariladi.

7-sinfda Materiklar va okeanlar tabiiy geografiya fanini o'qitish davomida, yuqori nazariy saviyada, o'z joyining geografik xususiyatlari ya'ni reliefi, tog' jinslari, iqlimi, daryolarini rejimi, tabiiy komplekslari, hamda topografik plan, globus va kartada yerni tasvirlash xususiyatlari to'g'risida ma'lumot berilishi lozim. Buning uchun esa o'quv yilining boshidayoq maktab atrofini kuzatish va kuzgi ekskursiya tashkil qilish juda muhimdir.

7-sinf "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida" mavzuni o'rganish jarayonida o'lka materiallari bilan bog'lab o'tish maqsadga muvofiq. Har bir materikning geografik o'rni, iqlimi, tuprog'i, o'simlik va hayvonot olami kabi ma'lumotlar o'lkamiz bilan qiyoslab o'tilsa o'quvchilarga tushunarli bo'ladi.

Qolaversa, materiklarning reliefi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, suvlari, shuningdek tabiat zonalari va tabiiy geografik o'lkalari haqidagi mavzular o'lka haqidagi bilimlarga qiyoslab o'tilsa, ta'lim mazmuni yanada samaraliroq bo'ladi. Metodist olimi L.M.Pancheshnikovaning fikricha, "...o'quvchi uchun mavhum hisoblangan har qanday geografik termin yoxud tushuncha o'lka deb ataluvchi prizmadan o'tkazilsa, uning mazmuni ancha oydinlashadi"- deb behudaga aytmagan. Mustaqillikdan so'ng o'quv dasturlarida o'lkaga doir geografik ma'lumotlar ko'lami keskin oshirildi. Kuzatish va ekskursiya davomida o'quvchilar maktab atrofining reliefini o'rganadilar, oqar suvlarni bo'yiga borib,

o'lchov ishlarini olib boradilar, joyga oriyentirovka oladilar, joyning oddiy planini tuzadilar, va turish nuqtasiga nisbatan, predmetlarni azimut burchaklarini aniqlaydilar. Shu kungi ob-havoni kuzatadilar, termometr yordamida haroratni o'lchaydilar, shamolni yo'nalishi va tezligini aniqlaydilar. Bu ishlarni hammasiga butun sinf o'quvchilari ishtirok etadi va ish materiallarini mazmunini puxta o'zlashtiradi.

7-sinfda tabiatga kamida ikki marta ekskursiya o'tkazish ko'zda tutilgan. Birinchi ekskursiya kuzda o'z joyini relefi, uni tashkil etuvchi tog' jinslari, yer usti suvlari to'g'risida tushuncha hosil qildirish uchun tashkil qilinadi. Ikkinchi ekskursiyadan maqsad bevosita tabiatni o'zida, tabiiy komponentlarni o'zoro aloqadorligini o'quvchilarga ko'rsatib berishdan iborat. Dasturda shuningdek, quyoshning gorizont ustida balandligini o'zgarishi, kunning uzunligi, tabiatni mavsumiy o'zgarishlari, daryolarni suv rejimi, o'simlik va hayvonot dunyosini mavsumlar davomida o'zgarishini kuzatib borish ko'zda tutilgan. Yuqorida ko'rsatilgan ekskursiyalar o'quvchilarni bir qator amaliy faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi. Shuning uchun 7- sinf darsligida hamma geografik tushunchalar, o'lkashunoslikka asoslanishi kerak. Chunki bu tushunchalar umumiy bo'lib, xususiy tushunchalarga tayanmasa, to'g'ri tasavvur hosil bo'lmaydi. Ayniqsa daryo va uning qismlari, relief shakllari, absolyut va nisbiy balandliklarni aniqlash kabi tushunchalar ekskursiya davomida mustahkamlanishi zarur. 7-sinfda o'qitiladigan materiklar geografiyasi, o'lkashunoslikga alohida ahamiyat berilgan. Bu sinf darsligida bahorgi ekskursiya rejalashtirilgan. Unda quyidagilarga etibor berilgan. Namlik va yorug'lik turlicha bo'lgan yerlardagi tabiatni kompleks tasvirlash va ekskursiya o'tkaziladigan joyning eng oddiy planini tuzish (T.Abdullayeva 1979). Bizning fikrimizcha o'quv yili davomida quyidagi mazmunda kuzatishni tashkil qilish lozim. Avvalo o'lkaning tabiiy sharoiti o'rganiladi. Bunda joyning geologik tuzilishi, relefi, foydali qazilmalari, iqlimi, suvlari, tuprog'i, o'simlik qoplami hayvonot dunyosini o'rganishga ham, etibor berish lozim. (T.Abdullayeva 1979). Tabiatni bunday o'rganish maxsus kuzatish stansiyalarida, masalan maktab geografik

maydonchasida yoki meteorologiya stansiyasida, daryodagi suvni kuzatish postida, geologik va tuproq kesmasi ochilib qolgan joylarda ekskursiya vaqtida olib boriladi. Bu ishlar ko'proq dala sharoitida olib boriladi.

8-sinfda O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi fanini o'qitishda ham o'lkashunoslikka alohida e'tibor berilgan. Bu sinfda o'quv programmasini talabini amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar tashkil qilish ko'zda tutilgan. Agar sanoat korxonalariga ekskursiya tashkil qilinadigan bo'lsa, bu korxonani o'rganish uchun quyidagi rejani tavsiya etish mumkin.

1. Korxona nomi.

-Korxonaning joylashgan o'rniga tabiiy va iqtisodiy geografik xarakteristika berish.

-Korxona qachon va nima sababdan qurilgan?

-Korxona uchun tabiiy sharoit va xomashyoning qanday ahamiyati bor. Korxonani qurilishiga qanday ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar sabab bo'lgan?

-Korxona qanday mahsulotlar ishlab chiqaradi? Uning mahsulotlari MDH va O'zbekiston xo'jaligida qanday rol o'ynaydi?

-Korxonaning iqtisodiy geografik aloqalari qanday? Qaysi xomashyolarni qayta ishlaydi? Ularni qayerdan oladi? Tayyor mahsulotlar qayerga yuboriladi? Korxona mahsulotlari qaysi transport vositfisi bilan tashiladi? Boshqa korxonalar bilan aloqasi qanday?

-Korxonaning texnik jihozlanishi ishlab chiqarishda qanday yangi texnologiyadan foydalanilmoqda?

-Ishchilarning miqdori va tarkibi. Ishchilar miqdorini o'sishi. Ishchilarni ixtisosi bilan taqsimlanishi. Mehnat unumdorligi korxonada qanday amalga oshirilmoqda? Korxonaning ilg'or kishlari haqida ma'lumot. (Stroyev K.F. 1974)

9-sinfda, 8-chi sinfda tashkil etilgan ishlar davom ettiriladi. 9- sinfda jahon iqtisodiy geografiyasi to'g'risida, o'quvchilarga ma'lumot beriladi. Geografik o'lkashunoslik jihatdan qaraganda bu sinfda mamlakatlarni iqtisodiy qudratini belgilaydigan omillardan biri bo'lgan yer osti boyliklarini baholash muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, O'zbekistonga qo'shni mamlakatlar

geografiyasini o'rganish uchun alohida soatlarning ajratilishi o'lkashunoslikka bo'lgan e'tiborni yanada oshganligining muhim belgisi hisoblanadi. Geografik o'lkashunoslikning o'quvchi yoshlar tarbiyasiga samarali ta'sirini ta'minlash o'qituvchidan yuksak mahoratni talab qiladi. O'qituvchi geografik o'lkashunoslikka doir ma'lumotlarni o'quvchilar ongi va qalbiga singdirishi eng avvalo samarali va zamonaviy ta'limiy usul va metodlarni qo'llashiga to'g'ri keladi. O'lka va uning betakror tabiati haqida o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda og'zaki bayon qilish usulining ahamiyati katta. Quyi sinf o'quvchilariga og'zaki bayon qilishning eng sodda usullaridan biri hikoya hisoblanadi. Hatto 8-sinf "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" kursida viloyat, shahar va hatto o'z tumani geografiyasini o'rganish uchun soatlar ajratilishi nazarda tutilgan. Mazkur holat mustaqillikning sharofati bo'lib, bundan ilgari hech qachon maktab dasturlarida o'lkashunoslikka bunchalik katta soat ajratilmagan edi. "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" kursida jonajon o'lkamizning tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari, xo'jalik tarmoqlari, mamlakat milliy iqtisodiyotidagi ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Bir so'z bilan aytganda, geografik o'lkashunoslik uchun keng imkoniyatlar ochib berildi. Geografik o'lkashunoslikda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kuzatish ancha samarali va yaxshi natijali usul hisoblanadi. O'quvchilarda fenologik kuzatishlar olib borish malakasini shakllantirish zarur. O'quvchilarni doimiy ravishda ob-havoni, suv va shamol ta'siridagi o'zgarishlarni kuzatish, atrof - muhitdagi tabiiy hamda iqtisodiy geografik o'zgarishlarni kuzatib borishga o'rgatish lozim. O'quv jarayoni davomida kuzatishni (kuzgi va bahorgi sayrlar jarayonida) tashkil etish alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarga o'lka haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish amaliy ishlarni (joyda plan olish, azimut bo'ylab yurish va yo'nalish burchaklarini aniqlash, orientirlash, joyda o'lchov ishlarini bajarish) olib borishda hamda turli geografik mavzuga doir misol va masalalar yechish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. O'lka materiallarini o'quvchilar ongida bir umrga muhrlanishida

ko'rgazmali metodlarning ahamiyati beqiyos. O'lka tabiati, ijtimoiy va iqtisodiy holati haqidagi o'quv filmlarini namoyish etish, xarita va atlaslar, yozuvsiz xaritalar bilan ishlash o'quvchilar ongida o'lka haqida chuqur iz qoldiradi. Geografik o'lkashunoslik ishlarini olib borish o'quvchilarda mustaqil izlanish va tadqiqot o'tkazish malakasini shakllantirishda yordam beradi. O'lka tarixi, toponimikasi, etnografiyasi va boshqa o'lkashunoslik manbalarini qidirib o'lka haqidagi ma'lumotlarni to'ldirishda bu yo'nalishlarning ahamiyati kattadir.

Maktablarda geografiya darslarini tashkillashtirishda turli ta'lim shakllaridan va yondashuvlaridan foydalanishlari mumkin. Quyida ularning asoslarini taqdim etamiz:

Nazariy asoslar:

1. Joyga bog'langan ta'lim (place-based education) — o'quv jarayonini mahalliy muhitga bog'lash orqali mustahkam bilim va ijtimoiy mas'uliyat rivojlanadi.
2. Loyiha asosidagi ta'lim — o'quvchilarga hududiy muammolarni aniqlash va yechim taklif qilish orqali amaliy ko'nikmalar beradi.
3. Multimetodik yondashuv — vizual (xarita, foto), interaktiv (GIS, onlayn resurslar), amaliy (suhbat, maydon tadqiqoti) usullarni uyg'un qo'llash samaradorlikni oshiradi.

O'lkashunoslik materiallaridan maktab darslarida imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, xaritalar, statistik ma'lumotlar, tarix-madaniyat manbalari, fotosuratlar, maydon tadqiqotlari, rasmiy hujjatlar va GIS-resurslaridan asosiy manbalar sifatida qo'llaniladi. Hozirgi holatda o'lkashunoslik materiallaridan geografiya darslarida foydalanilmoqda, ammo resurslarning yetishmasligi, o'qituvchilarning malaka cheklanganligi va ma'lumotlarning eskiligi kabi muammolar mavjudligi imkoniyatlarimizni cheklamoqda.

Shu kabi muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va chora-tadbirlar ilm egalari tomonidan ishlab chiqilmoqda. Hozirgi kunda ma'sulmshaxslar tomonidan mahalliy resurslar bazasini yaratish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, raqamli arxiv va onlayn portallar, mikroloyihalar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish

orqali muammoga yechim topilmoqda..

Amaliy misol: 8-sinf uchun dars reja

Mavzu: “Buxoro viloyatida suv resurslari va ularning taqsimlanishi”. Darsda xarita, statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va diagrammalaridan asosiy metod sifatida foydalaniladi.

O‘lkashunoslik materiallari geografiya darslarini boyitishda katta imkoniyat yaratadi. Samarali foydalanish uchun tizimli hamkorlik, malaka oshirish va resurslarni yangilash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Geografiya fanidan davlat o‘quv dasturi. Toshkent, 2021.
2. Davlat statistika qo‘mitasi. Statistik ma’lumotlar to‘plami. Toshkent: DSQ nashriyoti, 2022.
3. Buxoro viloyati hokimligi. Hududiy rivojlanish dasturi 2020–2025. Buxoro, 2020.
4. Alimov R., Qodirov S. Geografiya o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Saidov M. Buxoro viloyatining tabiiy resurslari va ularning o‘rganilishi. Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2018.

6. *А.А. Половинкин. География и родная природа. Москва. Изд. АН РСФСР. 1963.*

7. Строев, К. Ф. Краеведение: Учебное пособие для студентов педагогических институтов. — 2-е издание, переработанное и дополненное. — Москва: Просвещение, 1974. — 142 с.